



Azimxon NE'MATOV,

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Mashhuraxon ISABAYEVA,

Qo'qon DPI biologiya kafedrasi dotsenti, PhD

E-mail: mashxuraisabaeva1978@mail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, pedagogika kafedrasi dotsenti, O.Ergashev taqrizi ostida

BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada biologiya o'qitish metodikasi o'quv kursida talabalarni mustaqil ta'limga ishlarni tashkil etishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari imkoniyatlari yoritib berilgan. Biologiya o'qitish metodikasida mustaqil ta'limga ishlarni tashkil etishning didaktik maqsadi talabalarning faoliyat jarayonida ijodiy, mantiqan, tahliliy faoliyat yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ishlar mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, kasbiy pedagogik faoliyat, o'qituvchilarining shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, talabalarni o'quv bilish faoliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ

Аннотация

В статье освещаются уникальные педагогические особенности организации самостоятельной учебной работы студентов в методическом курсе преподавания биологии. Дидактическая цель организации самостоятельного обучения по методике преподавания биологии основана на способах развития творческих, логических и аналитических способностей учащихся в процессе деятельности.

Ключевые слова: Содержание самостоятельной работы, ее формы обучения, методы, средства, профессиональная педагогическая деятельность, саморазвитие учителя как личности, активность учебных знаний учащихся.

PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN BIOLOGY TEACHING METHODOLOGY

Annotation

The article highlights the unique pedagogical features of organizing students' independent educational work in the biology teaching methodology course. The didactic goal of organizing independent education in the methodology of teaching biology is based on the ways of developing creative, logical and analytical skills of students in the process of activity.

Key words: The content of independent work, its teaching forms, methods, tools, professional pedagogical activity, self-development of teachers as individuals, activity of students' educational knowledge.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda o'quvpedagogik jarayonga xalqaro ta'limga standartlarini joriy etish, pedagog-kadrular salohiyatini oshirish xususan, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishslash ko'nikmalarini takomillashirishda ta'limga sharoitiga moslash, talabalarning amaliy-kasbiy kompetentligini ilg'or innovatsion metodlar asosida rivojlantirish pedagogik ta'limga turli tadqiqotlarga asos bo'immoqda. Zero pedagogika Oliy ta'limida barcha ixtisoslik fanlar kabi biologiya o'qitish metodikasini o'qitishda talabalar uchun mustaqil ta'limga olish ko'nikmasini rivojlantirishga oid metodik bazani rivojlantirish va innovatsion yondashuv asosida mustqail va ijodiy izlanish kabi faoliyatini optimallashtirish yuzasidan ilmiy tadqiq etishni maqsad etib olindi. 2009-yilning 14- avgustida OO'MTV 286-buyrug'i asosida "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomasi" joriy etildi. So'nggi yillarda talabalar mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublikamiz olyi ta'limga muayyan pedagogik vazifalar olib borilmogda. Ushbu vazifalar zamirida, talabaning ta'limga olishini zamonaqiy usullarini egallashga, uning ijodiy va mustaqil ta'limga olishini zamonaqiy usullarini egallashga, uning ijodiy va mustaqil ta'limga olish qobiliyatlarini o'stirish va fikrash tarzini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Bu esa talabalarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashni qayta ko'rib chiqish, mashg'ulotlar bosqichlarida turli zamonaqiy metodlar va mutaxassisilikgacha bo'lganfan elementlaridan keng foydalanishga o'rnatish, pedagogik amaliyat jarayonida ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning o'z ustida

mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik aspektida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etidi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil faoliyatining umumiy va alohida jihatlari, pedagogik jarayoni yaxlit tizim sifatida o'rganish masalasi M.Ochilov, J.G.Yo'ldoshev, R.H.Djurayev, A.Abdullayev; fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uning ta'limga samaradorligini oshirishdagi roli N.N.Azizxodjayev alar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. O.Q.Tolipovning kasbiy ta'limga tizimida yoshlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari [1], Sh.Sharipovning talabada mustqil ta'limga shaklida ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik asoslarini [2], Sh.Yunusovaning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish [3], Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlarning mustaqil ta'limga shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. [4]. "Mustaqil ish" tushunchasini "o'z-o'zini tarbiyalash" tushunchasidan farqlash kerak. V.I.Tolkunov tadqiqotlarida o'z-o'zini tarbiyalash mustaqil mehnatdan ajralgan va o'quv jarayoniga parallel ravishda o'tadigan hodisa sifatida emas, balki mustaqil ish bilan bir xil emas, balki uning eng yuqori darajasi sifatida qaraladi. O'quv faoliyatni mustaqil ishga asoslanadi. Mustaqil ishlar muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, o'quv topshirilarning yechimini toppish, o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlash, ko'nikma, malakalarni takomillashtirish, kompetensiyalarini shakllantirish amaliy-laboratoriya mazmun-dagi kabi mashqlarni qamrab oladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarni fanga oid nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirilishi o'quv rejada berilgan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'limgoatlarini bajarilishida amalga oshirib boriladi. Talabalarning mustaqil ishlari auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtarda tashkil etishdan iborat bo'lib, ularda o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishi uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishiga yordam beruvchi o'qitish shaklidir. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ta'limgoat va talaba hamkorligida bajariladigan o'quv muammolarini yechimini topishga qaratilgan tizimli faoliyat bo'lib, o'zaro guruhlar o'rtaida kommunikativlikda tashkil etiladi. Professor-o'qituvchilardan auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta'minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bo'rajak biologiya o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni shakllantirish, fanning o'qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari haqida nazariy va amaliy bilimlarni qurollantirish, shuningdek ularda kasbiy mahorat va ijodiy qobiliyatni rivojlanish kabi masalalarni yoritishda ixtisoslik fani sifatida "Biologiya o'qitish metodikasi" muhim ahamiyatga ega. Barcha o'quv fanlari kabi "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv fanidan ma'ruza, laboratoriya, seminar va amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'qitish tamoyillari, metod va vositalari yuzasidan metodik tavsiyalar va ko'rsatmalar mavjud bo'lib, pedagoglar uchun unumli foydalanish imkoniyatini beradi. Ilmiy pedagogik adapbiyotlar va tadqiqot ishlari tahvilididan ma'lum bo'ldiki, olyi ta'limgoat muassasalarida kredit-modul' tizimida talabalarning mustaqil ta'limgoat tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, mustaqil ta'limgoat mazmuni, shakli, metodlari hamda talabalarning mustaqil ishlari uchun metodik tavsiyalar berilgan [6]. Biroq o'qitish metodikasida talabalarni o'z ustida mustaqil ishslash ko'nikmasini faoliyat usuliga aylantirishning metodik tizimini tadbiq etilishi muhim o'ringa ega. Mazkur jarayon "Biologiya o'qitish metodikasi"dan auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limgoat mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning rolini oshirish professor-o'qituvchilardan talabalarning yuqori darajadagi mustaqil ishlarni bajarishi yuzasidan tayyorgarliklarini ta'minlovchi quyidagi usul va shakllarni ishlab chiqishni talab etadi:

"Biologiya o'qitish metodikasi"da mustaqil ta'limgoat tashkil etishning og'zaki, amaliy va ko'rgazmali metodlar yordamida tashkil etish;

Mustaqil ta'limgoat topshiriqlarini bajarishda elektron axborot resurs vositalaridan foydalanish imkoniyatidan foydalanish (reprodukтив, produktiv, adaptiv va kreativ nostonard testlar, keys-stadi o'quv topshiriqlar, jadvalli organeyzer topshiriqlar va x.zo);

"Biologiya o'qitish metodikasi"dan auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limgoat mashg'ulotlarida mustaqil, ijodiy, mantiqan va tahvilili fikr yuritish ko'nikmasini tarkib toptiruvchi o'quv topshiriqlar bazasini shakllantirish;

Innovatsion ta'limgoat texnologiyalari asosida talabalarni darslik, qo'shimcha o'quv adapbiyotlari ko'rgazma vositalari, masala va mashqlar yechish, amaliy mazmundagi tajriba qo'yish kabilari.

Mustaqil ta'limgoat talabalarni mustaqil o'quv - bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun innovation ta'limgoat texnologiyasini individual ishslash metodlaridan foydalanish talabalarni berilgan o'quv materiali ustida ijodiy izlanishi, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishi nazarda tutiladi. Mustaqil ish topshiriqlarini berish, o'quv faoliyatida mustaqillik rivojlanish, o'quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish va ijodiy

topshiriqlar berish uslublari kiradi. O'quv vazifalarini bajarish uchun ishlab chiqilgan metodologiya bizga ucta ketma-ket va o'zaro bog'liq bo'lganbosqichlarni belgilash imkonini beradi:

1. Maqsadga muvofiqlik bosqichi talabalarni kelgusi faoliyatda umumiy asosda yo'naltirishga qaratilgan. Uning mohiyati shundaki, talabalar topshiriqlarning mazmuni va maqsadini tushunadilar, ularni amalga oshirishning eng mumkin bo'lganvariantlarini aniqlaydilar.

2. Ijodiy faoliyatni rivojlanitirish bosqichi - olingan bilim va ko'nikmalar aniq ishlarni bajarish jarayonida o'zingin haqiqiy timsolini topadi. Talabalar o'qitishning asosiy usullari bilan tanishadigan birinchi bosqichdan farqli o'laroq, o'quv-ijodiy bosqich ularni o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llarini izlashni tashkil etadi;

3. Konstruktiv bosqichi o'quv jarayonini ijodiy bosqichda rivojlangan ko'nikmalarini umumilashirish, talabalarning o'z-o'zini rag'battantirish harakatlarni oldingi bosqichga teng darajada va yuqori darajada amalga oshirish, vazifalarni hal qilishda ijodiy yondashuvning namoyon bo'lishidir. bu amaliy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va aniq muammolarni hal qilishga, oqilonla fikrlash mahoratidan foydalangan holda real obyektlarni yaratishga qaratilgan jarayondir.

Tahsil va natijalar. Pedagog olima M. Ibodovning ilmiy tadqiqot ishlari mazmunida maktab o'quvchilarida mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot resurs vositalaridan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirish yo'llarini yoritib o'tilgan[5]. B.Sattarov va M.Hamidovalar tomonidan talabalar mustaqil ishlarning shakli va hajmini belgilashda jihatlari o'qish bosqichi; muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagagi qiyinchilik darajasi; talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi); fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi; talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi metodik tavsiyalar asosida yoritib berilgan. L.Zaripovning "Talabalar mustaqil ta'limgoat tashkil etish" nomli metodik qo'llanmasida olyi ta'limgoat muassasalarida kredit-modul' tizimida talabalarning mustaqil ta'limgoat tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, ularning mustaqil fikrlashlarini shakllantirish usul va uslublari ko'rsatilgan bo'lib bizning tadqiqot ishimizni yoritishimizda metodik manba bo'lib xizmat qiladi[7]. Mustaqillikni shakllantirish jarayoni talabalarni o'z ichiga olgan qidiruv vazifalarini tizimli ravishda bajarishni o'z ichiga oladi shunday xarakterdagi vazifalar, ularning echimiga muayyan vaziyatni tahsil qilish, sabablarni aniqlash, taqqoslash va hokazolarning u yoki bu usullari mulohazalar va xulosalar yordamida muhim aloqalarni aniqlash erishish mumkin. Bilim bilan ishlagan holda o'quvchilarda fikrlash, muhim fakt va hodisalarini qayd etish, ular o'rtaida bog'lanish, muhim belgililariga ko'ra o'xshashlik va farqlarni o'rnatish, bir xil faktlarni bir nechta manbalardan solishtirish qobiliyati asta-sekin rivojlanadi. O'quvchilarning tajribasi sezilarli darajada kengayadi, samaraliroq bo'ladi va o'ziga xos deduktiv xulosalarda rivojlanadigan fikrlash samarali faoliyat darajasiga yetadi.

Xulosa. Xulosa o'mida aytishimiz joizki, "Biologiya o'qitish metodikasi"da mustaqil ta'limgoat tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish talabalar bilan individual ishslash va ularni o'quv faoliyatini bevosita nazorat qilishga keng imkoniyat yaratishi aniqlandi. Shuningdek har bir talaba fanga ta'lluqli bo'lganmustaqil ta'limgoat topshiriqlarini o'quv portfoliosiga joylashtirish va o'z o'zini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi nazarda tutildi. Mustaqil ta'limgoat shakli talabaning fan yuzasidan ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashhabus va tafakkurni rivojlanitirish uchun pedagogik - didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o'qitish vositalari // Xalq ta'lumi. – Toshkent, 2000. – №1.- B. 45 – 47.
2. Sharipov Sh. S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishining pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta'lumi faku'ttetlari misoldida): Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 205 b.
3. O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish // Xalq ta'lumi. – Toshkent, 1997. – №5. – B. 53 – 55.
4. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'lumi. - Toshkent, 2001.- №1.- B. 38 – 40.
5. M.Ibodova. Biologiyadan o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi (akademik litseylar misoldida) p.f.f.d...diser., T.-2019y, -152b.

6. B.Sattarov, M.Hamidova. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish (Metodik tavsiyalar).- Namangan, 2020.- 20 b.
7. Zaripov, L. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish [Matn] : metodik qo'llanma /L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirova. – Toshkent: "Sano-Standart", 2023. – 32 b.
8. Smirnova N.Z.Berejnaya O.V. Kompetentnostiy podxod v biologicheskem obrazovanii. Uchebno metodicheskaya obrazovani posobiye –Krasnoyarsk, 2012.–168 s.